

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra 2020-yilning yanvar-martida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda-YaHM) hajmi joriy narxlarda 2 025,2 mld. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning tegishli davriga nisbatan 2,5 % ga o'sdi.

2020-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 2 388,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mld. so'm		2019-yilning yanvar-martiga nisbatan, % da
	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	
I. YaHM	1 843,0	2 025,2	102,5
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 641,4	1 944,0	102,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	201,6	81,2	102,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 641,4	1 944,0	102,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	419,2	468,9	102,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) sanoat	682,0	827,0	102,9
qurilish	573,6	695,1	103,3
Xizmatlar	540,2	648,1	101,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	116,5	125,3	95,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	82,4	96,7	107,0
boshqa xizmat tarmoqlari	341,3	426,1	102,5

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi—24,1 %), sanoat—103,3 % (35,8 %), qurilish—101,2 % (6,8 %), xizmatlar—101,7 % (33,3 %) ni tashkil etdi.

**2020—yilning yanvar–mart oylarida YaHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**
(*o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 96,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 % ini tashkil etdi.


2019—yilning yanvar–marti (25,5 %) ga nisbatan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,4 % punktga kamaydi va hisobot davrida 24,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,1 % punktga ko`payib, 42,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 33,3 % ni tashkil etdi va 2019—yilning mos davri (33,0 %) bilan taqqoslanganda 0,3 % punktga ko`paydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan, % da)**

2019-yil yanvar–mart



2020-yil yanvar–mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,4 % (2019-yil yanvar–mart oylarida–7,1 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa–5,0 % (5,0 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari–21,9 % (20,9 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
nashr uchun mas'ul: U.Elmuratov
Tel.: (67) 236-86-14